

INTERNET-IJTIMOY TARMOQ MATNLARINING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

*X.U.Urokov,
SamDCHTI o'qituvchisi*

Annotatsiya. Internet tarmog'i bugungi shunday jadallik bilan rivojlanib kelmoqdaki, unda foydalanuvchilar tomonidan ishlatilayotgan so'zlarni o'rganish, tahlil qilish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoq sahifalarida foydalanuvchilar tomonidan yozilayotgan internet matnlarida turli xil jargonlar, tabular, varvarizm, vulgarizmlar, sotsiolektlar kabi sotsiolingvistika elementlarini uchratishimiz mumkin. Bulardan tashqari, ijtimoiy tarmoqda shunday guruhlar shakllanib bormoqdaki, bu guruhlarning muloqot jarayonlarini amalga oshirishdan o'z maqsadlari mavjud. Ushbu maqolada aynan mana shu jihatlarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: sotsiolingvistika, internet, internet tarmog'i, ijtimoiy tarmoq, kommentariya, foydalanuvchi, ijtimoiy guruh, muloqot, muloqot usullari.

Sotsiolingvistika bevosita ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tilning insonlar orasidagi muloqot vazifalarini qay darajada bajarishini, muloqot jarayonida qanday elementlardan foydalanilayotganini o'rganadigan soha sanaladi.

Sotsiolingvistika tilning o'zgaruvchan xususiyati va funksiyasini o'rganuvchi fandır. Sotsiolingvistika atamasi lotincha socialic–jamiyat va lingua–til so'zlaridan tashkil topgan. U ijtimoiy tilshunoslik demakdir.

Bu atamani fanga birinchi marta 1952-yilda amerikalik sotsiolog G.Karri kiritgan. Sotsiolingvistikaning ildizlarini Amerika tilshunosligidan emas, balki Yevropa, xususan, rus tilshunosligidan izlash kerak.

Bugungi kun internet tarmog'ida olib borilayotgan muloqotlarda suhbatdoshlar o'rtasida odob-axloq qoidalariga umuman amal qilinmayapti, vulgarizmlarni juda ko'plab uchratishimiz mumkin.

“Bu gap bilan Murod aka Barsaning muxlisi ekanligini ko‘rsatib qo‘ydi. Barsa orqasidan yesa, putini ichiga kirib ketadi, yutsa dakan xo‘rozday javdirab chiqadi” (Telegram tarmog‘idan Murod Rizayev sahifasidan olindi).

Ushbu kommentariyga e‘tibor beradigan bo‘lsak, muloqot qiluvchining madaniyatsizligiga, saviyasining pastligiga guvoh bo‘lamiz. Ushbu fikr orqali yuqoridagi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisining bilim saviyasi nihoyatda past ekanligi, birovlarining sha‘ni umuman qiziqtirmasligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Internet tarmog‘ini biz ma‘lum bir jamiyat deb atasak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Chunki jamiyat deganda, muayyan nutq sharoitida nutq jarayoni ishtirokchilari, shu nutq ishtirokchilari mansub bo‘lgan ijtimoiy-madaniy tabaqa hamda nutq sharoiti tushuniladi. Bozorda, do‘konda sotuvchi va xaridor o‘ziga xos bir jamiyatni tashkil qiladi.

Ushbu ta‘rifdan kelib chiqadigan bo‘lsak, internet tarmog‘idagi ijtimoiy tarmoqlarda ham suhbatdoshlar ma‘lum bir ijtimoiy tabaqaga, ular o‘rtasida qo‘llaniladigan muloqot usullariga ega bo‘ladilar. Chunki bu tarmoq juda katta va ko‘p ijtimoiy guruhlardan tashkil topgan. Ijtimoiy guruh a‘zolari o‘zlarining kasblaridan, ijtimoiy guruhlaridan kelib chiqqan holda muloqot qiladilar, ularning muloqotida nutq ixtisoslashadi-ma‘lum bir qolipga tushadi, mavzu doirasi ham chegaralanadi. Masalan, Telegram tarmog‘idagi foydalanuvchilarda o‘qituvchilar guruhi, sport guruhi, talabalar guruhi, diniy guruhlar kabi ijtimoiy guruhlar mavjudki, bulardagi suhbatlar guruh nomidan kelib chiqqan holda olib boriladi. Bu guruhlarni biz bemalol internet jamiyatining bir qismi sifatida ko‘rsatishimiz mumkin.

Internet tarmog‘ida ijtimoiy guruh va uning a‘zolari o‘rtasidagi suhbatlar va ma‘lum bir ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotlar ham mavjud. Tarmoqdagi ma‘lum bir maqsadda birlashgan guruh vakillari (masalan, “Ziyolilar”, “Tilchilar”, “Barsamaniya”) o‘zlarining mushtarak maqsadlariga tayangan holda muloqotga kirishadilar. Bulardagi suhbat jarayonlari kichik guruh doirasida olib

boriladi. Boshqa guruh vakillarining muammolari, yutuqlari ularga unchalik ham ta'sir o'tkazmaydi.

Lekin shunday holatlar ham mavjudki, endi ijtimoiy tarmoqdagi ba'zi ijtimoiy guruhlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishiga to'g'ri keladi. Unda endi ikki guruh manfaatlari to'qnashadi yoki ikki guruh o'rtasidagi masalalarga oydinlik kiritiladi. Masalan, ijtimoiy tarmoqdagi siyosatchilar bilan oddiy insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonini ushbu holatga misol sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Yoki ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan Xalq ta'lim vazirining **“Maktabdagi o'qituvchilarning ko'pi talabga javob bermaydi. Ularga qanday qilib 1000 dollar oylik to'lashimiz mumkin” (Daryo.uz saytidan)** deb nomlangan intervyusi orqali siyosatchilar bilan o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotni ko'rishimiz mumkin.

Kichik guruh a'zolarining o'zaro muloqoti mikrosotsiologiya, ijtimoiy guruhlarning o'zaro muloqoti esa makrosotsiologiyaga misol bo'ladi.

Ijtimoiy tarmoq sahifalarida bulardan tashqari ekvivalentsiz leksika, lakunalar, realiyalar, dialektlar, tarixiy va arxaik so'zlar, diniy so'zlardan ham foydalanilmoqda, bu orqali esa tilning naqadar ijtimoiylashib ketganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

“Sportning bu turini hech ikkilanmay, shafqatsiz jang turi deb atayman. To'g'ri, xatti-harakatlardagi chaqqonlik va epchillik talabi o'zimizning erkin kurash turiga yaqinroq turadi. Ammo qattiqqo'llik, raqibga ayovsiz kuchli va keskin zarba berishda ikkilanmaslik jihatlari bilan mutlaqo farq qiladi. Jang chog'ida tana a'zolarining qattiq lat yeyishi yoki sinishi ikkinchi taraf uchun qiziq emas”.

Ushbu matnda til o'zgarishining tashqi omillari-tilning ishlatilishidagi shart-sharoitlarni kuzatishimiz mumkin. Chunki bunda so'zlovchi o'z suhbatdoshiga o'zining qaysi ijtimoiy guruhga mansub ekanligini, bu ijtimoiy guruhdagi qonun-qoidalar haqida, ular shug'ullanayotgan sport turning shavqatsizligini til orqali bildirib o'tmoqda.

“Kurash maydoni bu – iqtisod! Har bir g‘alabada g‘olib hisobiga katta miqdorda mablag‘ to‘lanadi. Biroq jang maydonida faqat halollik ustun. Team Quest klubidan o‘rganganlarim meni o‘ta qattiq zarbalarga tayyorlagan bo‘lsa, o‘zbek maktabida ongimga singdirilgan «**kurashdagi halollik**» meni g‘alabaga boshlagandek bo‘laveradi...”(Farroshlik qilib yo‘lini topgan, Amerikadagi kurash maydonlarida kuragi yerga tegmagan buxorolik hunarmand-muhojir-“Maqsadimga yetish uchun mehnatdan qochmadim” nomli maqola. Daryo.uz saytidan olingan)

Bu matnda nima uchun ushbu sport turini tanlaganini, ijtimoiy guruh a‘zolarining asosiy maqsadi nima ekanligini bilib olamiz. Bundan tashqari, ushbu sport turi bilan shug‘ullanayotgan insonning yosh ekanligini ham anglab olamiz. Ushbu insonning qaysi muhitda yashayotganligini, avval qaysi muhitda qanday g‘oyalar ta’sirida tarbiya topganligini ham anglab olamiz. Til o‘zgarishining tashqi omili so‘zlovchilarning yoshiga jinsiga, ma’lumotiga, nutq sodir bo‘layotgan muhitga ham bevosita aloqadordir.

Internet tarmog‘ini, ijtimoiy tarmoqlarni biz bimalol lisoniy hamjamiyat, uning turlarini esa lisoniy hamjamiyatning guruhlari desak ham bo‘ladi. Sababi lisoniy hamjamiyat deb ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, bir til yoki bir necha til yordamida kundalik hayotda bir-birlari bilan va turli ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro muloqotga kirishuvchi insonlar majmuyiga aytiladi. Yaxshilab e’tibor berib qarajak, internet ijtimoiy tarmog‘i ham turli xil mavzularda bir-biri bilan muloqot qilinadigan tarmoq sanaladi.

Bir lisoniy hamjamiyat boshqasidan hajm jihatdan ham katta bo‘lishi mumkin. Bu ta’rifga qarab ham internet-ijtimoiy tarmog‘ining lisoniy hamjamiyat deyishimizga sabablar yetarli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Chunki internet ijtimoiy tarmog‘i katta, u juda ko‘plab mayda guruhlarga bo‘linib ketadi. Shuning uchun ham biz internet-ijtimoiy tarmoqni katta lisoniy hamjamiyat, internet-ijtimoiy tarmoqning turlari – Telegram, Whats’app, Facebook, Instagram, Tik Tok, Messenger va ulardagi mavjud guruhlarni esa kichik lisoniy hamjamiyat, deb atasak ham bo‘ladi.

Internet-ijtimoiy tarmoqlardagi matnlarda baynalmilal soʻzlar ham koʻpayib bormoqda, bu holatni xalqlar oʻrtasidagi aloqalarning rivojlanganligi bilan bogʻlashimiz mumkin. Bunday hollarda baʼzi soʻzlar chet tilidan kirib kelgan boʻlsa ham, bugungi kunda oʻzimizga oʻzlashib ketgan hisoblanadi. Lekin shunday chetcha soʻzlar ham mavjudki, bunday soʻzlar nutqimiz uchun, nutq vaziyati uchun umuman aloqasi yoʻq sanaladi. Masalan, hi, hello, sava, nu kak, xorosho, privet, kak delo, mamochka, papochka, mam, tak, love story, svidaniya kabi. Bularning bir qismi oʻzbekcha maʼnosi boʻla turib ham nutqimizda ishlatilsa, boshqa bir qismi esa umuman zarurati boʻlmagan hollarda ishlatiladi.

Ijtimoiy tarmoq sahifalarida ham shunday soʻzlardan foydalanilgan matnlarga koʻzimiz tushadi. Bu orqali biz soʻzlovchi haqida maʼlum bir xulosalarni chiqarib olamiz. “Privet, meni kuzatib boruvchilarim. Men yaxshi, nasib boʻlsa xabarlashamiz. Balki svidaniyalasharmiz. Moy delo xorosho, shu uchun barchangizga kattakon spasibo. Meni qoʻllab turganlaring uchun”. (Instagram sahifasi)

Yuqoridagi matnda adabiy tilimizga salbiy taʼsir qiladigan soʻz va birliklar: privet, svidaniyalashamiz, moy delo xorosho, spasibo kabilar nutqimizni gʻalizlashtirib bormoqda.

Ijtimoiy tarmoq matnini jarayon va suhbatdoshlarning yozishmalarini uning natijasi sifatida olib qaraydigan boʻlsak, unga salbiy taʼsir qiluvchi quyidagi sotsiolingvistik xususiyatlarni alohida ajratib koʻrsatishimiz mumkin:

- 1) suhbatdoshlarning individual uslubi va ifoda vositalarini qoʻllashdagi oʻziga xosligiga bogʻliq boʻlgan sotsiolingvistik xususiyatlar;
- 2) adresant va adresat oʻrtasidagi munosabatlarda pragmatik farqlar natijasida vujudga keladigan sotsiolingvistik xususiyatlar;
- 3) ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchi guruh aʼzolarining milliy-madaniy oʻziga xosliklariga bogʻliq sotsiolingvistik xususiyatlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Yermakova va boshqalar. “Sotsiolingvistika”. Moskva, 1999.

2. Chaer A., Agustina L. Sociolinguistik perkanalan awal (introduction to sociolinguistics). Jakarta, Rineka Cipta, 2004.

3. Hamidulla Dadaboyev, Shoira Usmanova. Xorijiy sotsiolingvistika. Toshkent, 2014.

4. M. Jurayeva, O. Yusufjonova. O'zbek tilini o'qitishda ijtimoiy tarmoqlarning o'ri. Academiv research in educational science. www.ares.uz.

5. Nigmatovna, T. S. (2022). TEXT IS A HIGH-LEVEL SYNTACTIC UNIT. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(5), 263-269.

6. Nigmatovna, T. S. (2022). THE PROBLEM OF TEXT AND SYNTACTIC DERIVATION. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 7(4), 213-217.

7. Туробов, А. (2020). Ог „заки ва ёзма нутқ хусусида. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (76)), 15-16

8. Туробов, А. (2021). ҚЎШМА СЎЗ–МИКРОСИНТАГМАТИК МУНОСАБАТЛАР ОБЪЕКТИ СИФАТИДА. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI, 6(6)

9. Sotsiolingvistika fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma. SamDu, 2021.

10. Беликов В. И., Крисин Л. П. Сотсиолингвистика. –М., 2001.

11. Холова, М. (2019). Рауф парфи шеърлари бадиияти. Иностранная филология: язык, литература, образование, 4(1 (70)), 67-70.

Khalova, M. (2014). SKILL OF CREATING EPITHETS IN MODERN UZBEK POETRY. The Way of Science, 44.